

## VOLONTYORLIK



Volontyorlar odamlarga beg'araz yaxshilik qilish uchun birlashgan insonlardir. Ularga oylik maosh to'lanmaydi. Volontyorlik – birovlariga yordam berish, savob uchun xolis xizmat qilish.



Sevara va Anna – dugona. Yana ular eko-volontyorlardir. Ular yangi mahallada yashaydilar. Bu yerda hali daraxtlar juda kam, ekilgan ko'chatlar ham kichkina, nimjon. Shuning uchun qizlar har kuni kechqurun uydan chelakda suv olib chiqib, ko'chatlarni sug'oradilar.

Bir kuni Sevaraning buvisi shunday dedi: "Yangi qurilgan tumanlarda daraxtlar juda kam edi. Shuning uchun yangi uylarga ko'chib kelgan odamlar ko'chat sotib olib, uylar atrofiga, ko'cha yoqalariga eka boshlashdi. Chinor ham, eman ham juda sekin o'sadi. Ularning ko'chati kattakon daraxt bo'lib, soya-salqin bo'lishi uchun kamida qirq-ellik yil kerak bo'ladi. Demak, o'sha insonlar bu ko'chatlarni o'zlari uchun emas, balki farzandlari, nabiralari uchun, ular jazirama yozda soya-salqinda maza qilib yursin deb ekishgan".



Odamlarga foyda keltiradigan va evaziga faqat duo olinadigan ishlar savobli ishlar deyiladi. Savob uchun ish qilish xalqimizning eng go'zal fazilatidir.



Bir kuni juda qattiq shamol turib, jala yog'di. Ertasi kuni qarashsa, bir necha ko'chat sinibdi. Qizlar buni ko'rib, yig'lab yuboray deyishdi. Shunda Anna bilan Sevaraning otasi chiqib, nozik ko'chatlarning yoniga yog'och ustun qoqib, ko'chatlarni o'sha ustunlarga bog'lab qo'yishdi. Endi ular qattiq shamolda sinib qolmaydi. Bu savobli ishga hissa qo'shish uchun butun mahalla chiqib, hashar qildi. Kechgacha hamma ko'chatlar mahkamlab qo'yildi.

Anna bilan Sevara "Katta bo'lsak, ekolog bo'lamiz, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashamiz", deb orzu qilib yurishibdi. Hozircha ishni o'zlari yashaydigan mahalladan boshlashgan.

Qizlarning sinfdoshlari ham chetda qarab turishmayapti. Mahallada imkoniyati cheklangan yolg'iz o'g'li bilan yashaydigan kekxa ayol bor ekan. Ular o'sha ayolning uyini tozalashadi, yig'ilib qolgan chiqindilarni tashlab kelishadi, do'kondan kerakli narsalarni olib kelishadi, o'g'lining aravachasini ko'chaga olib chiqishga yordam berishadi.



1. Savob deganda nimani tushunasiz? Eko-volontyorlik nima?
2. Nima uchun odamlar ko'chatlarning yoniga ustun qoqib chiqishdi?
3. Bolalar qo'shni kekxa ayolga qanday yordam berishyapti? Nima uchun bu ishni volontyorlik deyish mumkin?
4. Odamlarga foydali ish qilmoqchi bo'lsangiz, kim bilan maslahat qilish kerak?



Savobli ish qilish, volontyor bo'lish qiyin emas. Yaxshi niyat qilib, odamlarga beg'araz yordam bermoqchi bo'lsangiz, ish topiladi.



Alina, Komila va Sardor jonivorlarni juda yaxshi ko'rishadi. Hovlida yashaydigan bitta kuchukcha bilan to'rtta mushukka ovqat berishadi. Lekin ular ko'proq savobli ish qilib, haqiqiy volontyor bo'lishni istashdi. Ular daydi itlar uchun tashkil etilgan boshpana rahbariga qo'ng'iroq qilishdi.

– Yordam bermoqchimiz deysizlarmi? – xursand bo'ldi boshpana rahbari Iroda opa. – Juda yaxshi. Kelaveringlar. Har shanba ertalab soat o'nda bozordan avtobus qatnaydi. Ish rosa ko'p!

Shanba kuni bolalar ish kiyimlarini kiyib, itlarga berish uchun ovqat ham olib, yo'lga tushdilar. Itlar ovqatning hidini sezib, xursand bo'lib hura boshlashdi.

– Voy-bo', itlar buncha ko'p? – deyishdi bolalar.





– Ha, shunaqa, itlarimiz ko'p! – dedi shu yerda ishlaydigan Dilorom opa. Dilorom opa bu yer ochilganidan beri ishlar ekan. Uning qo'lidan hamma ish kelarkan – bu yerdagi itlar, mushuklar, xo'tikchalarni davolar, parvarish qilar, ularga ovqat pishirar ekan. Yordam beraman deb kelganlarga nima qilish kerakligini aytib turarkan.

Bu safar Dilorom opa bolalarga itlarning tagiga solingan somonni almashtirish, keyin esa ularga suv berishni iltimos qildi. Kechgacha ishlagan bolalar charchab, uyga qaytishda avtobusda uqlab qolishdi. Lekin savobli ish qilganlari uchun hamma xursand edi.



1. Bolalar volontyor bo'lish uchun qaysi tashkilotga murojaat qildilar? Nima uchun?
2. Bolalarning kuni qanday o'tdi? Nega ular rosa charchagan bo'lsa ham xursand bo'lishdi?



Siz ham odamlarga yordam berish uchun o'zingizga yoqqan savobli ishlarni tanlashingiz mumkin. Masalan, daraxtlarni parvarish qilish, tog'dagi va istirohat bog'laridagi chiqindilarni yig'ishtirish, hasharlarda qatnashish mumkin. Yordamga muhtoj, bemor, yolg'iz yashaydigan keksalarga qarashish, uylarini yig'ishtirish, kerakli narsasini do'kondan olib kelib berish mumkin. "Mehr va oqibat" jonivorlarni himoya qilish jamiyatiga borib, ularga ham yordam berishingiz mumkin.

Xullas, savobli ishning turi ko'p. Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarni yuritish deysizmi, rasm chizish, fotosuratga olish, yaxshi g'oyalarni tarqatish – hammasi savobli ish, hammasi volontyorlik.

Sindoshlaringiz uchun "Mehr-muruvvat darslari"ni tashkil qilish, o'zidan kichik bolalarga tabiatni asrashni, jonivorlarni himoya qilishni o'rgatish ham volontyorlik sanaladi.



***"Mehr va oqibat" tashkiloti jonivorlarni himoya qilish, jamiyatda ularga g'amxo'r munosabatni rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Bu tashkilot maktablarda "Mehr-muruvvat darslari"ni o'tkazib turadi.***



**Tanishlaringiz orqali volontyorlik qilayotgan biror inson bilan uchrashib, undan intervyu oling.**